



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 16-mart, № 56 (8679)


Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



KO'P QIRRALI O'ZBEKISTON — QOZOG'ISTON HAMKORLIGINI TUBDAN KENGAYTIRISH ZARURLIGI TA'KIDLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-mart kuni Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov boshchiligidagi hukumat delegatsiyasini qabul qildi.



Davlatimiz rahbari Bosh vazir Oljas Bektenovni yaqinda ushbu lavozimga tayinlangani bilan samimiy qutladi va mas'uliyatli

faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi. O'z navbatida, Qozog'iston Hukumati rahbari O'zbekiston

Prezidentiga Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish masalalari

ko'rib chiqildi. Xususan, bo'lajak oliy darajadagi qo'shma tadbirlarga tayyorgarlik doirasida hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish jarayonida, shu jumladan, vakolatli vazirlar boshchiligidagi ishchi guruh doirasida to'siqlarni bartaraf etish va o'zaro kelishilgan choralarni ko'rish zarurligi qayd etildi.

Mamlakatlarimiz strategik sherikligida muhim yo'nalishlar bo'lgan sanoat, transport va logistikada kooperatsiyani kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ustuvor tarmoqlardagi investitsiya dasturlarining yangi portfelini hamda transport va energetika sohasidagi mintaqaviy ahamiyatga ega infratuzilmaviy loyihalarni faol ilgari surish maqsadga muvofiq ekani ta'kidlandi.

O'zbekiston Prezidenti O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni tubdan kengaytirish maqsadida hukumatlar darajasida yaqin va tizimli aloqalarni davom ettirish muhimligini qayd etdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

SPORT TURLARINI OMMALASHTIRISH REJALARI TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yurtimizda og'ir atletikani hamda mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazishda sport katta o'rinni egallaydi. "Besh tashabbus" olimpiadasi, respublika chempionatlari doirasida u keng ko'lam kasb etmoqda. Shu bilan birga, olimpiya sport turlarini rivojlantirib, mahoratli sportchilarni tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida og'ir atletika bo'yicha barcha yosh toifasidagi sportchilar bilan individual ishlash tizimini yaratish hamda ularni professional darajada tayyorlash uchun Og'ir atletika markazini tashkil etish vazifasi belgilangan.

Ushbu markaz Sport vazirligi huzurida Chirchiq shahrida ochildi. U ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi bo'lib, 7 — 11-sinf bolalariga saboq beriladi. Ular ilg'or usullar asosida terma jamoalarga asosiy nomzod sifatida tayyorlanadi. Markaz 2025/2026 o'quv yilidan faoliyat boshlashi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashining homiyligida Og'ir atletika sport klubi tashkil etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Toshkent va Samarqand viloyatlarida hududiy maktablar ochildi.

Umuman, bu yo'nalishni rivojlantirish maqsadida uch yillik dastur ishlab chiqildi. Unda yoshlarning og'ir atletikaga qiziqishini oshirish, hududlarda sportchilar uchun yetarli sharoitlar yaratish, seleksiya jarayonlarini raqamlashtirish, malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etib, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish kabi vazifalar qamrab olingan. Og'ir atletikani ommalashtirish maqsadida

3 bosqichli musobaqalar, Markaziy Osiyo va "Uzbekistan Open" ochiq chempionatlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Yurtimizda eng ommaviy sport turi, bu — futbol. Shu bois mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog'ini kengaytirish maqsad qilingan.

Buning uchun mahallalarda mavjud stadionlar va boshqa sport maydonchalaridan samarali foydalaniladi. Ular yo'q joylarda davlat-xususiy sheriklik asosida shunday inshootlar barpo etiladi. Erkaklar va ayollarning turli yosh toifalari o'rtasida mahalla terma jamoalari tuziladi. Iqtidorli yoshlar aniqlanib, professional futbol muassasalariga yo'naltiriladi.

Bu borada mahalladagi yoshlar yetakchilariga O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining hududiy bo'linmalari va sport maktablari ko'maklashadi.

Shuningdek, joriy yildan boshlab, Angliya maktablari futbol assotsiatsiyasi tajribasi asosida, 8 — 11-sinf o'quvchilari orasidan maktab futbol yetakchisi tanlab olinadi. 12 — 15 yoshlilar o'rtasida ikki bosqichli "Mahalla ligasi" hamda 16 — 30 yosh toifalari orasida uch bosqichli Davlat xavfsizlik xizmati kubogi musobaqalarini o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Bular mahallalardan boshlab futbol infratuzilmasini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash va qo'llab-quvvatlash, milliy terma jamoalar uchun sifati zaxira shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, yoshlar o'rtasida sport va do'stlik muhitini mustahkamlash, musobaqalarni yuqori tashkiliy darajada o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

2025-YILDA UNESCO BOSH KONFERENSIYASI 43-SESSIYASINING SAMARQAND SHAHRIDA O'TKAZILISHIGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RI SIDA

Keyingi yillarda O'zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'sini yanada oshirish va mustahkamlashda, ikki va ko'p tomonlama hamkorliklarni kengaytirish va chuqurlashtirishda UNESCO muhim platforma vazifasini o'tab kelmoqda.

Buning natijasida 2017 — 2023-yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi UNESCOning ro'yxatlaridan joy olib, insoniyat merosi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etildi. Buxoro shahri Ijodkor shaharlar tarmog'iga kiritildi. 2023-yil sentabr oyida UNESCO Bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligi keng nishonlandi.

Ayniqsa, 2023-yil 7 — 22-noyabr kunlari Parij shahrida bo'lib o'tgan UNESCO Bosh konferensiyasining

42-sessiyasi yakunida O'zbekiston Respublikasining UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini (keyingi o'rinlarda — Sessiya) 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazish to'g'risidagi tashabbusi bir ovozdan qo'llab-quvvatlangani jahon hamjamiyati tomonidan muhim voqea sifatida e'tirof etildi.

Ushbu nufuzli xalqaro anjumanni yuqori darajada o'tkazishga har jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, O'zbekiston va UNESCO hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida:

1. 2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha **tashkiliy qo'mita** (keyingi o'rinlarda — Tashkiliy qo'mita) tuzilsin hamda uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(Davomi 2-betda).



HAMJIHATLIK, OBODLIK VA MEHR-OQIBAT TIMSOLI

Mamlakatimizda Navro'z umumxalq bayramini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish hamda muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish bo'yicha sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Yana shunday katta tadbirlardan biri 16 — 18-mart kunlari "Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rki" shiori ostida umumxalq xayriya hasharining o'tkazilishidir.

Hashar

Bundan mahallalar, aholi turarjoylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini obodonlashtirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ko'lamzorlashtirish tadbirlarini davom ettirish, sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigiyenik madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash kabi euzu maqsadlar ko'zlangan.

Xalqimizga xos milliy urf-odatlar hamda o'zaro mehr-oqibat, hamjihatlikni o'zida mujassam etgan qadimiy va azaliy qadriyatlaridan biri — hashar. Bu insonlarga birdamlik, ahillik va odamiylikdan saboq beruvchi, bebaho tarbiyaviy ahamiyatga ega oliyanob tadbirdir. Uning zamirida obodlik, bunyodkorlik, o'zaro yordam, insonparvarlik va xayr-saxovat yotadi.



Ochiq eshiklar kuni

PARLAMENTDA DEPUTATLAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida davlat organlari rahbarlari va yoshlarning to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotini yo'lga qo'yish maqsadida deputatlar, rahbarlar, tadbirkorlarning yoshlar bilan uchrashuvlarini tashkil etish belgilangan edi.

Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Ochiq eshiklar kuni" doirasida bir qator tadbirlar o'tkazildi. Ularda O'zbekiston Milliy, O'zbekiston davlat jahon tillari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya, Toshkent davlat yuridik universitetlari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent xalqaro Vestminster universiteti akademik litseyi hamda Uchtepa tumanidagi 194-maktabning 300 nafardan ziyod talaba va o'quvchilari ishtirok etdi.

Bunday uchrashuvlar yoshlarni mamlakat taraqqiyotiga munosib ulush

qo'shish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash barobarida, parlament haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, yigiti-qizlarni intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, hayotiy islohotlarga befarq bo'lmagan, kelajak uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, vatanparvar, komil shaxslar sifatida tarbiyalash davlatimiz rahbari e'tiboridagi dolzarb masalalardan bo'lib, bu bo'yicha o'tgan davrda tizimli sa'y-harakatlar ro'yobga chiqarildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov



hamda deputatlarning talaba yoshlar bilan uchrashuvlarida Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi, mamlakatimiz tarixida birinchi marta umumxalq referendumini orqali, ya'ni bevosita xalqimiz tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.



MUHIM O'ZGARISH VA YANGILANISHLAR

AHOLI HAYOTIDA AKS ETMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning hududlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish, istiqboldagi rejalarni belgilash maqsadida viloyatlarga tashrifi yaxshi an'anaga aylandi. Har galgi tashrif o'sha hududdagi katta o'zgarishlar, keng ko'lami bunyodkorliklar va yangilanishlarga yo'l ochib bermoqda.

Davlatimiz rahbarining shu yil 14-mart kuni Sirdaryo viloyatiga safari ham qizg'in ruhda o'tdi. Uzoq kutilgan tashrif aholining kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, ularni yangi marralar sari ruhlantirdi. Oliy Majlis Qonunchilik

Aks sado

Agrar soha taraqqiyoti va xalq farovonligi

Ravshan MAMUTOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi: — Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish, yer

munosabatlarini tartibga solish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda. Agrar sohada hayotga tatbiq etilayotgan islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad shuki, o'zgarishlarni, yangilanishlarni hamma o'z kundalik hayotida har kuni sezishi kerak. Narx barqarorligi ta'minlangan joyda o'zgarish kuzatiladi, taraqqiyot tezlashadi, odamlar hayotdan rozi bo'ladi, xalqimiz farovon turmush kechiradi.



O'ZARO MANFAATLI MUNOSABATLARNI YANADA MUSTAHKAMLASHGA KELISHIB OLINDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Nyu-York shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot

O'zbekiston Respublikasining BMT va uning ixtisoslashtirilgan idoralari bilan hamkorligining hozirgi holati hamda istiqbollari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, muloqot davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va davlatlar o'rtasidagi so'nggi yillarda to'plangan ijobiy sheriklik tajribasiga alohida e'tibor qaratildi.

Suhbat davomida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq, jumladan, gender tengligini ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

O'z navbatida, A. Guterrish Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ijobiy holatida O'zbekistonning

muhim o'rni borligini e'tirof etdi. Jumladan, u shunday dedi: "Prezident Shavkat Mirziyoyev sa'y-harakati bilan Markaziy Osiyo bugun ahil-inoq yashamoqda, mamlakatlar barcha sohada jadal hamkorlik qilmoqda. Mintaqa ayollari Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining noyob muloqoti doirasida birlasha oldi".

Suhbat chog'ida O'zbekiston tashabbuslarini xalqaro maydonda ilgari surish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga doir aniq takliflarni qo'llab-quvvatlashda BMT bilan konstruktiv hamkorlik yuzasidan fikr almashildi.

Samimiy va amaliy ruhda kechgan uchrashuv yakunida O'zbekiston hamda BMT o'rtasida barcha sohada o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirishga kelishib olindi.

O'zbekiston va Turkiya:

ISHONCH ASOSIDA RIVOJLANAYOTGAN ALOQALAR

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Nyu-York shahrida amaliy tashrifi davomida Turkiyaning Oila ishlari va ijtimoiy ta'minot bo'yicha vaziri Maxinur Ozdemir Gyoktash bilan uchrashdi.

Davlatlarimiz rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi va birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli bugun O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi qardoshlik rishtalari mustahkamlanib, hamkorligimiz o'zaro ishonch asosida rivojlanib borayotgani alohida qayd etildi.

Muloqot chog'ida gender tenglikni ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatamlari bilan ishlash borasida hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Ayollarga nisbatan va oiladagi zo'ravonlikning oldini olish hamda unga

qarshi kurashish borasidagi tashkiliy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tajriba almashish maqsadida Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi bilan Turkiya parlamentining Ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar qo'mitasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish taklifi ilgari surildi.

Konstruktiv va amaliy ruhda o'tgan uchrashuv yakunida xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasida qo'shma loyihaga dasturlarni amalga oshirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I2025-YILDA UNESCO BOSH KONFERENSIYASI 43-SESSIIYASINING
SAMARQAND SHAHRIDA O'TKAZILISHIGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA
CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2. Tashkiliy qo'mita (A.N.Aripov):
Sessiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni hal qilib borsin, shuningdek, axborot-tahliliy va boshqa hujjatlarning o'z vaqtida va sifatli tayyorlanishini ta'minlasin;

Sessiyaning Samarqand shahrida o'tkazilishining ahamiyati haqida yuqori sifatli **mediamahsulotlar** hamda **audiovizual asarlar yaratib**, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida efirga berib borish, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish, **xeshteg** va **chellenj** kabi usullarni qo'llash orqali **keng targ'ib qilish** choralarini ko'rsin;

Sessiyaning Samarqand shahrida o'tkazilishi munosabati bilan **"Samarqand — jahon tamaddunlari chorrahasida"** **kitob-albomni** o'zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida chop etish, **pochta markalari** va **konvertlar** turkumini yaratish, **taqvimlar** va **ko'rgazmali targ'ibot vositalari**, **esdalik tangalari**, **kumush** va **oltin tangalarning** muomalaga chiqarilishini tashkil qilsin;

Sessiya doirasida Samarqand shahrida tadbirlar o'tkaziladigan joylarni zamonaviy texnik va telekommunikatsiya uskunalari bilan jihozlasin hamda Toshkent va Samarqand shaharlaridagi obyektlar va zarur bo'lgan mehmonxona fondini tayyorlasin;

Sessiya doirasida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarida madaniy tadbirlar, ekskursiyalar va qabullarni yuqori saviyada tashkil etsin;

Sessiya ishtirokchilarining kelishi va ketishi, ularga viza rasmiylashtirish, transport va tibbiy xizmatlar ko'rsatish masalalari samarali hal qilinishini muvofiqlashtirsin.

3. Sessiya **"Silk Road Samarkand"** sayyohlik majmuasida o'tkazilsin.

4. Sessiyaga tayyorgarlik doirasida:
Madaniy meros agentligi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda — Samarqand shahridagi tegishli **madaniy meros obyektlarini**

asrashga doir ishlarni hamda immersiv va mavzuli ko'rgazmalarni tashkil etsin;

Tashqi ishlar vazirligi — UNESCO Bosh direktori nomiga **O'zbekiston Respublikasining Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markaziga a'zo bo'lishi** uchun rasmiy ariza topshirsin;

UNESCO ishlari bo'yicha milliy komissiya — O'zbekistondagi shaharlar, noyob madaniy va tabiiy meros obyektlarini tegishlacha UNESCOning **Ijodkor shaharlar** hamda **Ta'limni targ'ib etuvchi shaharlar tarmoqlariga**, shuningdek, **xalqaro ro'yxatlariga kiritish** choralarini ko'rsin;

Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi — UNESCO mezonlari asosida va xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda Samarqand shahrida **Buyuk Ipak yo'li davlat muzeyini** tashkil etish, sohibqiron **Amir Temur bog'larini** qayta tiklash, **Bibixonim majmuasini** restavratsiya qilish, Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan **Buxoro tarixiy markazini muhofaza qilishga qaratilgan uning master va menejment rejalari**ni ishlab chiqish bo'yicha tegishli qarorlar loyihalarini belgilangan tartibda kiritisin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tegishli vazirlik va idoralar Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda — **Sessiyaning mamlakatimizda o'tkazilishining ahamiyatini**, shuningdek, **O'zbekiston jahon siyosatining markazlaridan biriga, global tashabbuslar muallifiga aylanib borayotganini** atroflicha ochib berishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarni tashkil etsin.

5. Quyidagilar:

2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha **"Yo'li xaritasi"** 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish doirasida **xorijiy davlatlarda targ'ibot ishlari**ni tashkil etadigan **O'zbekiston Respublikasining xorijdagi**

diplomatik vakolatxonalari va oliy ta'lim muassasalari ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tashkiliy qo'mita, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, tegishli vazirlik va idoralar ushbu qarorga muvofiq **davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixi**, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan **islohotlar natijalarini xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish** hamda ular bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

6. Belgilansinki:

Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Tashkiliy qo'mitaning **Ishchi organi** (keyingi o'rinlarda — Ishchi organ) hisoblanadi;

"InterForum" davlat unitar korxonasi Sessiyani tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha **Bosh operator** hisoblanadi;

vazirliklar va idoralarning birinchi rahbarlari ushbu qarorda nazarda tutilgan topshiriqlar, shuningdek, Tashkiliy qo'mita hamda Ishchi organing boshqa tezkor ko'rsatmalari o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

7. Tashqi ishlar vazirligi Sessiya ishtirokchilari uchun Ishchi organing viza talabnomalariga binoan kirish vizalarini konsullik yig'imlari va haqiqiy xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan yig'imlar undirmasdan, zarur hollarda "Toshkent" va "Samarqand" xalqaro aeroportlarida rasmiylashtirishni ta'minlasin.

8. **2024-yil 1-apreldan boshlab** O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarning umumiy shtat birliklari sonini o'zgartirgan holda O'zbekiston Respublikasining UNESCO huzuridagi Doimiy vakolatxonasi (keyingi o'rinlarda — Doimiy vakolatxona) shtatlar jadvaliga maslahatchi va ikkinchi kotib

ikkita qo'shimcha shtat birligi kiritilsin, shuningdek, Doimiy vakolatxonaga qo'shimcha bitta transport vositasini saqlashga limit ajratilsin.

9. Tashqi ishlar vazirligi Doimiy vakolatxonani saqlash xarajatlarini uning tashkiliy-shtat tuzilmasidagi o'zgarishlarni va qo'shimcha bitta transport vositasini saqlashga limit ajratilganini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining 2024-yilga mo'ljallangan Davlat budjeti parametrlarida Tashqi ishlar vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida moliyalashtirishni ta'minlasin.

10. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy media assotsiatsiyasi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Sessiyaning mamlakatimizda o'tkazilishining ahamiyati hamda ushbu qaror doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha (UNESCO) doimiy vakolatxonasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ—3957-son qaroriga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul etib UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi raisi G.O.Umerova va tashqi ishlar vaziri B.O.Saidov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti****Sh. MIRZIYOEV**Toshkent shahri,
2024-yil 15-martHAMKORLIK
ISTIQBOLLARI
MUHOKAMASI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari S. Safoyevning Polsha Respublikasi madaniyat va milliy meros vazirining o'rinbosari B. Jelazovska boshchiligidagi parlament delegatsiyasi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Biz va jahon

Muloqot chog'ida O'zbekiston — Polsha munosabatlarining hozirgi holati va ularni rivojlantirish istiqbollari, xususan, parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish, uni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi va parlament nazorati sohasida o'zaro tajriba almashishni faollashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Mehmonlarga O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida aholi turmush darajasi va sifatini oshirish, ijtimoiy

infrazuzilmani takomillashtirish, mamlakatimiz barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar to'g'risida ma'lumot berildi.

O'z navbatida, Polsha tomoni O'zbekistonda demokratik davlat asosini mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholadi.

Suhbat davomida ikki tomonlama parlamentlararo muloqot izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Davlatlarimiz qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida

o'zaro manfaatli sohalaridagi hamkorlikni yanada faollashtirish yuzasidan qiziqish bildirildi.

Hududlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sheriklikni kuchaytirish masalalari ham ko'rildi.

Varshava — Toshkent — Varshava to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovi ochilishi Polsha tomoni uchun ham juda uzoq kutilgan voqea ekani alohida urg'ulandi.

Shuningdek, tomonlar turizm sohasi hamkorligi bo'yicha katta salohiyat mavjudligini, ikki davlat poytaxtlari o'rtasida muntazam aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish, o'zaro sayyohlik oqimini oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

"Xalq so'zi".

Senator va hayot

JOYLARDA OCHIQLIKNI TA'MINLASH VA
RAQAMLASHTIRISH ISHLARI
QANDAY OLIB BORILMOQDA?

Ma'lumki, keyingi davrda yurtimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaning oldini olish hamda muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma'lumotlar ko'lamini yanada kengaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qililib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Tabiiyki, ushbu hujjatlar ijrosi yanada muhim.

Shu maqsadda yaqinda Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi a'zolari Jizzax viloyatida bo'lib, mahalliy Kengash qo'mitasi hamkorlikda ochiqlikni ta'minlash hamda raqamlashtirish borasidagi ishlarni atroflicha o'rganib chiqdi. Ayni chog'da bu boradagi holat mas'ullar ishtirokida batafsil tahlil qilindi.

Muhokamada senatorlar, mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari raislari, davlat hokimiyati organlari matbuot kotiblari hamda vazirlik va idoralar mas'ullari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, viloyatda davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash va raqamlashtirish yo'nalishida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan 16 turdagi ma'lumotlar muntazam ravishda viloyat hokimligi tomonidan e'lon qilib kelingan. Viloyat, tuman va shahar hokimliklarida matbuot kotiblari faoliyati to'liq yo'lga qo'yilgan. Ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali viloyatga oid 238 ta tanqidiy material e'lon qilingan bo'lib, ularning barchasiga o'z vaqtida tezkor munosabat bildirilgan.

Shuningdek, ijro organlari, hududlardagi ijtimoiy soha obyektlari faoliyati to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, tezkor aloqa vositalari bilan ta'minlangan va internet tarmog'iga ulangan.

Mobil aloqa tarmoqlari sohasi bo'yicha 127

ta yangi baza stansiyasi o'rnatilib, 297 tasi modernizatsiya qilingan va hududlardagi aholi maskanlarining 97 foizi mobil aloqa, 92,4 foizi keng polosali mobil internet xizmatlari bilan qamrab olingan.

Senatorlar viloyatda qo'lga kiritilgan shu kabi yutuqlar bilan birga, ayrim muammolar mavjudligiga ham e'tibor qaratishdi.

Qayd etilganidek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida keng jamoatchilik uchun dolzarb bo'lgan yangiliklar muntazam berib borilmagan, ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar e'lon qilinmagan.

Ayrim tuman va shahar hokimliklarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilingan telefon raqamlari doimiy ravishda ishchi holatda emas, ma'lumotlar almashinuvi (qayta aloqa) to'g'ri yo'lga qo'yilmagan.

Viloyatning Zafarobod, Mirzachol'i, Yangiobod va Baxmal tumanlari hokimliklarining matbuot kotiblari uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan.

Ishchi guruh tomonidan yuqorida aniqlangan kamchiliklarni hal qilish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Bu borada ishlarni samarali tashkil etish maqsadida alohida "Yo'li xaritasi" ishlab chiqish zarurligi aytiladi.

Majlisda ko'rilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasi hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

PARLAMENTDA DEPUTATLAR VA
YOSHLAR UCHRASHUVI

Shuningdek, milliy saylov qonunchiligimiz umume'tirof etilgan xalqaro prinsip va normalarga to'la mos holda huquqiy jihatdan yanada rivojlantirilgani qayd etildi. Xususan, saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan Konstitutsiyaviy Qonun bilan mamlakatimizda yangi saylov tizimi joriy etilib, saylov va referendum o'tkazishning ochiqligi, shaffofligining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Jumladan, endilikda Qonunchilik palatasi saylovi aralash (majoritar, proporsional) saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Unda Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi (partiyalar ro'yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlari bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi nazarda tutildi.

Uchrashuvlarda talaba va o'quvchilarga quyi palata, siyosiy partiyalar fraksiyalari hamda qo'mitalar ish faoliyati, qonunlarni qabul qilish jarayoni haqida so'zlab berildi. Xususan, qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni dastlabki tarzda ko'rish, birinchi va ikkinchi o'qishga tayyorlash, yalpi majlis muhokamalariga kiritish bilan bog'liq



muhim masalalar yuzasidan atroflicha ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, yoshlarni qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb etish qabul qilinayotgan qonunlarda yoshlar huquq va manfaatlarini aks ettirish, ularning jamiyat hayotida faolligi va tashabbuskorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bois muloqotlarda bugungi islohotlarning barchasi yoshlar uchun, ularga har tomonlama sharoit yaratish uchun amalga oshirilayotgani ta'kidlanib, Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi hamda uning huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

Talabalar, o'quvchilar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob olishdi

hamda o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishdi.

Uchrashuvda biz quyi palata faoliyati, norma ijodkorligi, siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mita ish uslublari hamda parlamentarizm sohasidagi yangiliklar haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik, — deydi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi Sunnatilla Yuldoshev. — Palata majlislarini to'g'ridan-to'g'ri efir orqali doimiy kuzatib boraman. Bugun esa Qonunchilik palatasiga kelib, qonun ijodkorlarining faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Aynan huquq sohasida tahsil olayotganim uchun bu yerda olgan ma'lumotlarim foydali bo'ldi. Bunday muloqotlar men kabi bo'lajak huquqshunoslarga uchun yaxshi tajriba maktabi bo'lishiga ishonchim komil.

— Qonunchilik palatasiga birinchi

marta kelishim, — deydi Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi Sevinchxon Toshmatova. — To'g'risi, palata binosi ichkarisiga kirib, deputatlar haqidagi tasavvurlarim umuman o'zgardi. Ular bilan samimiy muloqot qildik. Qabul qilinayotgan qonunlar mazmuni, muhokamalar jarayoni, tortishuvlar, bahs-munozaralar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bu bizda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, qonunlarni birinchi, ikkinchi, uchinchi o'qishda qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida foydali axborotlar oldik.

"Ochiq eshiklar" kuni doirasidagi tadbirlarda yoshlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi muzeyi, katta majlislar zali hamda kutubxona faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

"Xalq so'zi".

SUV XO'JALIGIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR
YETARLICHA JORIY QILINYAPTIMI?

Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan Suv xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda "Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish: muammolar va yechimlar" mavzuida konferensiya o'tkazildi.

Tadbir

Unda senatorlar, tegishli vazirliklar mutasaddilari, O'zbekiston Fermer, dehqon va tomorqa yer egalari kengashi vakillari, ekspertlar guruhi a'zolari, ilmiy-tadqiqot instituti olimlari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, amaliyotchi mutaxassislar, talaba va magistrantlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi

yillarda suv xo'jaligida ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilim-fan yutuqlarini qo'llash, agrar sohaga innovatsiyalarni joriy qilish bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish bo'lasida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi

kutilmoqda. O'zbekistonda 2015-yilgacha bo'lgan davrda suv umumiy taqchilligi 3 mlrd. metr kubdan ortiqni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilga borib 15 mlrd. metr kub bo'lishi kutilmoqda.

Mintaqada so'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi, qor va yomg'irlar kam yog'ishi, muzliklar va yirik daryolar havoizlarida, kichik daryo va soylarda suv miqdorining kamayib borayotganligi, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli respublikada o'rtaacha yillik 51 — 53 mlrd. metr kub suv resurslaridan foydalanilmoqda. Ko'rsatkich ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20 foizga qisqargan.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan ta'kidlanganidek, Prezidentning suv xo'jaligini

rivojlantirishga oid Farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida o'tgan yilda sohada bir qator ishlar ro'yobga chiqarilgan va muayyan natijalar qo'lga kiritilgan. Masalan, irrigatsiya yo'nalishida 393 kilometr kanal, 58 kilometr lotok, 19 ta gidrotexnika inshooti, 4,3 m³/s nasos stansiyasi, 4,6 kilometr bosimli quvurlar, 2 ta ko'priklar va 60 ta sug'orish qudug'i qurilgan va rekonstruksiya qilingan, 9,1 kilometr qirg'oqda himoya ishlari bajarilgan.

Meliorsatsiya yo'nalishida 230 kilometr ochiq, 156 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 6 ta vertikal drenaj qudug'i, 59 ta gidrotexnik inshoot, 58 ta kuzatuv qudug'ini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari uddalandi.

Bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining texnik holati yaxshilanib, loyihalar hududidagi 208 ming gektar maydonlarning suv ta'minoti va 106 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlarining meliorativ holati yaxshilanishiga zamin yaratilgan.

Shuningdek, anjumanda suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish jarayoni bilan bog'liq muammolarni tahlil etish asnosida ilmiy asoslangan xulosalarni hayotda keng qo'llash yaxlit tizimini yaratish masalasiga to'xtalib o'tildi.

Tadbirda soha rivojiga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".



MUHMIM O'ZGARISH VA YANGILANISHLAR

AHOLI HAYOTIDA AKS ETMOQDA

➡ Prezidentimiz Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida Sayxunobod tumanida bo'lib o'tgan tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishida ham bu masalaga alohida to'xtildi.



Ma'lumki, Sayxunobod tumanining eng katta zaxirasi ham, imkoniyati ham — yer. Tomorqalarda asosiy ekin beda bilan makka bo'lib qolgan. Sarxil meva-sabzavotlar

yetishtirib, daromad olish, eksport qilish yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli, tumandagi 17 mingta xonadondagi tomorqani ishga solish, kichik sanoat va xizmatlarni yo'lga qo'yish orqali aholini daromadli qilish vazifasi qo'yildi.

Bu bejiz emas. Zero, tomorqa — eng katta daromad manbai hisoblanadi. Lekin hamma fuqarolarimiz ham yerdan samarali foydalanyapti, deb bo'lmaydi. Shu bois ilk bor yangi tajriba qilinib, 19 ta mahallaning har biriga bittadan minitraktor, 4 tadan motokultivator olib berildi.

Aytish joizki, tomorqada yetishtirilgan mahsulotni sotib olish tizimini yo'lga qo'yish ham muhim masala sanaladi. Shu ma'noda, tumanda eksportga ko'maklashuvchi korxona ochilib, ustaviga 1 milliard so'm kiritiladi. Bu korxona 4 ming xonadonga serhosil qovoq, mosh, loviya, rozmarin, brokkoli, timyan urug'larini yetkazadi, yetishtirilgan mahsulotni sotib olib, eksport qiladi.

Bular hali hammasi emas. Shuningdek, tumandagi 19 ta mahallaning har birida 10 tadan xonadonda namunaviy intensiv bog' yaratiladi. Kooperatsiya asosida ularga eksportchilar bog'lanib, 2 ming tonnalik saqlash, saralash va qayta ishlash majmualari tashkil etiladi. Bularning barchasi aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash barobarida, yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qilishi ayon.

Sir emaski, qishloq hududlarda yashovchi yurtdoshlarimiz borki, hovlisida, bitta bo'lsa ham, sigir boqadi. Sababi ular chorva otilan barakasi ekanini yaxshi biladi. Hovlisida bitta sog'in sigiri bor to'zg'orning dasturxonini doim to'kin, daromadi barakali bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, tashrif davomida hududda chorvachilik sohasini kengaytirish maqsadida aholiga ozuqaga yer berish va kredit olishda amaliy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilishi ham belgilandi. Bu borada chorvasini ko'paytirish istagidagi oilalarga ozuqa uchun 400 gektar yer, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida qoramol, qo'y va echki olish uchun 33 million so'm imtiyozli kredit garovsiz, naqd pulda berilishi ayni muddao bo'ladi. Bu, o'z navbatida, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, chorvachilik mahsulotlari eksportini yanada oshirish, eng muhimi, narx-navo barqarorligini ta'minlashga turki bo'ladi.

Umuman olganda, tashrif doirasida odamlar turmush darajasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi, bularning barchasi viloyatni ijtimo-y-iqtisodiy rivojlantirib, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga

chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Turmushidan rozi bo'lib yashash baxti

Sherzod QULMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi:

— Mamlakatimizdagi islohotlar, bunyodkorlik shukhi, ma'naviy-madaniy ishlar samarasi sirdaryoliklar hayotiga ham yangicha mazmun kiritmoqda. Zero, viloyatda so'nggi 7 yilda bir necha o'n yilliklarda amalga oshmagan ishlar bo'ldi. Nafaqat viloyat markazi, balki eng olis qishloqlar ham mutlaqo zamonaviy qiyofa kasb etdi. Odamlarni yillar davomida o'ylantirib kelgan yo'l, ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan bog'liq masalalar yechildi.



Bu yutuqlar tasodifan emas. Ular negizida chuqur o'ylangan siyosat, xalqimizning fidokorona mehnati turibdi.

Izchilik bilan hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlik rivojlandi, yangi korxonalar qad rostladi. Odamlar mehnat qilib, daromad topishi, har bir kunidan, hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun barcha sharoit muhayyo qilindi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, bugungi Sirdaryo kechagi Sirdaryo emas. Viloyatda bo'layotgan o'zgarishlar, eng muhimi, odamlar ongi va dunyoqarashidagi o'zgarishlar ushbu viloyatning haqli ravishda yangi tarixi boshlanganidan darak beradi.

Bir paytlar viloyat markazga yaqin joylashgan bo'lsa-da, lekin bunday sharoitlar bo'lmagan, aholi uchun qulayliklar yaratishga e'tibor qaratilmagan. Hududda hozir amalga oshirilayotgan loyihalarni eshitib, mana, ko'p yillar davomida qilinmagan ishlarni qisqa muddatda ham qilsa bo'larkan-ku, deysiz.

Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi hudud ahlining kayfiyatini nihoyatda ko'tardi, ularni faollikka chorladi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida Sayxunobod tumani Ittifoq mahallasida bo'lib, tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyat bilan tanishdi. Shu yerda tomorqa egalari, mahalla faollari bilan suhbatlashdi.

Sayxunobod tumanida yerda tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhim vazifalar belgilab berildiki, ularning hammasi insonni rozi qilish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgani bilan e'tiborga molikdir.

Masalan, xonadonlarda kichik ishlab chiqarishni tashkil qilishga ko'maklashish zarurligi aytilib, shu maqsadda tumanda tadbirkorlik infratuzilmasini yaxshilashga 60 milliard so'm berilishi qayd etildi. Bo'sh turgan 21 inshootga esa investorlar jalb qilinib, foydalanishga kiritiladi. Eng muhimi, Farovon mahallasida 35 gektar maydonda kichik sanoat zonasini tashkil qilinib, kamida 100 million dollarlik sanoat loyihalari boshlanadi. Tasavvur qilyapsizmi, bu kabi loyihalar ijrosi

natijasida tumanda tadbirkorlik keng quloq yoyadi, ming-minglab yoshlar shu yerning o'zida ishli, daromadli bo'ladi.

Sirasini aytganda, bugun viloyatda mo'jizalar ro'y bermoqda. Bunday bunyodkorlik ruhi yangi marralarni zabt etishga chorlaydi. Yurtodoshlarimizning ko'zlaridagi quvonch, hayotdan mamnunlik, ayniqsa, yoshlarimizning nigohlarida barq urib turgan g'ayrat-shijoat, ertangi kunga ishonch ularning porloq kelajagidan dalolat beradi.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbarining bu galgi tashrifi viloyatni yanada rivojlantirish, inson qadriini ulug'lash, xalqni rozi qilish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish, turmush sharoitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Sayxunobod tajribasi — butun respublikada

Inomjon QUDRATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:

— Prezidentimiz Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida o'tkazgan videoselektor yig'ilishida tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish xalqimiz turmush sharoitini yanada yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlashi bejiz emas.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda odamlar yaxshi yashashga intilayotgani, ularga mablag' va ko'mak berib, daromad manbai yaratish zarurligini qayd etdi. Haqiqatan ham, bizning o'zbek xalqi azaldan rizqu ro'zi, nasibasini qilgan ziroatlardan topgan va hozirda ham qishloq xo'jaligining va chorvachilikning rivojlanishi albatta, yurtimizning farovonligiga chambarchas bog'liq.

Lekin keyingi yillarda Sayxunobod tumanidagi natijalar xursand bo'ladigan darajada emasligi, tumanda qishloq xo'jaligi, qirish va investitsiya tizimi yetarlicha ishlamayotgani, tadbirkorlik o'smayotgani haqli ravishda tanqid qilindi. Sayxunobod tumani misolida hududlardagi muammolar va foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.

Xususan, davlat tomonidan banklarga katta resurs ajratilayotgan bo'lishiga qaramay, yo'naltirilayotgan mablag'lar samarasi sezilmayotgani aytib o'tildi. Qolaversa, halol mehnati, tinimsiz harakati tufayli jamiyatga, mahallasiga nafi tegishi mumkin bo'lgan ba'zi oddiy odamlarimiz bankdan kredit ololmay, sarson bo'lmoqda.

Iqtisodiyotda noaniqliklar va noshaffof ish yuritilishiga qarshi hisoblangan "Adolat" SDPdan saylangan deputat sifatida yig'ilishda qayd etilgan ayrim statistik raqamlar e'tiborimni tortdi.

2023-yilda tumanda 167 ta yangi tadbirkor paydo bo'lgan bo'lsa, shuning yarmi hali ish boshlamagan. O'ylab qolasan, kishi. Bu kabi ko'zbo'yamachilik bilan kimni aldamoqchimiz yoki bu bilan nimaga erishamiz?

E'tiborli jihati shundaki, yig'ilishda tumandagi har bir muammoning sabab va oqibatlariga to'xtalib o'tilgani bilan bir qatorda yechimlarni kutayotgan har bir masalani hal etish yo'llari aniq qilib ko'rsatildi.

Shu nuqtayi nazardan, biz, parlament a'zolari joylarda uchrab turgan tizimli muammolarni aniqlashda va yechimlarni taklif qilishda hamda Sayxunobod tajribasi ijrosini nazorat qilishda jonbozlik ko'rsatishimiz kerak. Eng muhimi, hududlarimizni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarimiz ijrosini nazorat-tahlil tartibida o'rganishimiz lozim.

Tomorqa madaniyati — faollik va barqarorlik kaliti

Qizilgul QOSIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'ZDXP fraksiyasi a'zosi:

— Prezidentimiz viloyatga tashrifi davomida tomorqadan unumli foydalanish bilan birga, unda yetishtirilgan mahsulotni sotib olish tizimini yo'lga qo'yish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi. Shu maqsadda

tumanda eksportga ko'maklashuvchi korxona ochilib, ustaviga 1 milliard so'm kiritiladi. Bu korxona 4 ming xonadonga serhosil qovoq, mosh, loviya, rozmarin, brokkoli, timyan urug'larini yetkazadi, yetishtirilgan mahsulotni sotib olib, eksport qiladi.

Sayxunobodga tashrif chog'ida mutasaddilar oldiga qo'yilgan vazifa va topshiriqlar keng qamrovli bo'lib, aholining kundalik ehtiyojidan tortib, farovon yashashi, o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi, ish bilan ta'minlanishi, uy-joyga ega bo'lishi kabi jihatlarni qamrab olgan. Gap yondashuvda, kayfiyatda, odamlarning boqimandalikdan chiqib, yangi hayot boshlashga intilishida qolmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy faollik bo'lishi, har oilaning mehnat va daromad manbai yaratilishi Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadlariga ham mos keladi. Biz, deputatlar belgilab berilgan vazifalarni to'la qo'llab-quvvatlagan holda, imkoniyat va imtiyozlardan foydalanish, yordamning haqiqiy muhtojga yetib borishi, odamlarning intiluvchanligini oshirish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz zarur.

Suv resurslaridan samarali foydalanishimiz kerak

Ravshanbek BEGMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi:

— Keyingi yillarda respublikada suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish, suvdan foydalanishga doir qonunchilik bazasini kuchaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

E'tibor bering, 2018-yilgacha respublika bo'yicha suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 28 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, bugunga kelib bu ko'rsatkich 1,2 mln. gektarga yoki sug'oriladigan yer maydonlariga nisbatan 28 foizga yetdi.

Hozirda suvni tejamkorlik bilan sarflash nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda dolzarb masalaga aylangan. So'nggi yillarda olib borilayotgan ishlarga qaramay hali ham suvga bo'lgan munosabati o'zgarmagan hududlar mavjud.

Davlatimiz rahbari Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida bu masalaga alohida to'xtalib o'tdi. Chunki Sayxunobodning 19 kilometr hududidan Sirdaryo oqib o'tgani uchun "suv tekini" degan tushuncha o'mashib qolgan. Atigi 22 foiz yerlarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan.

Shuningdek, shohchilik fermer xo'jaliklari lazerli tekislanmagan. Kanallarni betonlash rejasini to'liq bajarilmagani oqibatida 9 ta mahalladagi 5 ming gektar joyga suv boryapti.

Aytish joizki, suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali suv balansi va ekologiya buzilishining oldini olish mumkin. Bu nafaqat agrar sohani kafoflatlangan va barqaror suv bilan ta'minlash, balki mintaqaning ekologik xavfsizligini saqlash imkonini ham beradi.

Shu ma'noda, mamlakatimizda suvni tejash, uni isrof qilmaslik, qadriga yetish, me'yorida foydalanish bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi va bu amaliy ishlar davom etmoqda. Chunki mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatida "Inson manfaatlari — hamma narsadan ustun" tamoyili mujassam.

Umuman olganda, davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifi davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalar barcha rahbarlar qatori biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan, biz bu borada yanada faol bo'lib, ushbu topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini o'rnatib borishimiz kerak.

"Xalq so'zi".

Tomorqa-uy xo'jaligi:

YANGICHA YONDASHUV VA MAS'ULIYAT

Davlatimiz rahbarining aholi yashash sharoitlari bilan tanishish maqsadida Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumaniga qilgan tashrifi g'oyatda samarali va qizg'in kechdi, desak, ayni haqiqat.

Ayniqsa, tashrif doirasida tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar, shuningdek, ushbu yo'nalishda taqdim etilayotgan yanada qulay sharoitlar sayxunobodliklar, xususan, tomorqa egalarga katta motivatsiya bo'ldi. Shu bilan birga, sohadagi ayrim muammo va

kamchiliklarning yechimi ham ko'rsatib o'tildiki, bu ham yaxshi samara berishi, shubhasiz.

Bildirilgan tanqidiy-tahliliy fikrlardan so'ng birgina Sayxunobod tumani emas, balki butun viloyat ahli tomorqa hamda umuman, uy xo'jaligini yuritishga yangicha va mas'uliyat bilan yondashishga kirishayotir.

Muxbirimiz videoselektor yig'ilishida bevosita ishtirok etgan ayrim yurtodoshlarimiz fikrlari bilan qiziqdi.

Yerning umri bekor o'tishi ham uvol

Tursunboy ARIPOV,
Paxtakon mahallasida yashovchi mehnat faxriysi, bog'bon:

— Yoshim 73 da. Lekin hali g'ayratim baland. Ayniqsa, kuni kecha Prezidentimiz bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'lganimdan so'ng kuchimga yanada kuch, shijoatimga shijoat qo'shildi.

Videoselektor yig'ilishida tomorqadan foydalanishdagi kamchiliklar hamda aholini boy qilishning hali ishlatilmay yotgan imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishish borasidagi vazifalarni eshitib, garchi yoshim ulug' bo'lsa-da, ularni bajarishga o'zimni daxldor, deb his qildim. Chunki esimni taniganimdan ongimda yerning umri bekor o'tishi ham uvol, degan tushuncha muqim joy olgan.

Bir necha yillardan buyon uzumchilik bilan shug'ullanaman. Sayxunobod sharoitida ham Oltiariqnidek shirin va sarxil uzum yetishtirish mumkinligini o'z tomorqamizdagi bog'ning har yilgi hosili misolida ko'ryapman. Hozirda jami tokzorimiz 80 so'x. Unda "husayni", "kelin barmoq", "rizamat", "mersedes", "shohonaki" singari uzum



navlari mavjud. Bog'imiz mo'may daromad keltirish bilan birga, katta oilamiz a'zolarining bandligini ham ta'minlamog'da.

Qunvonarlisi, mahallamizda tomorqasida uzumzor barpo qilgan xonadonlar tobora ko'paymoqda. Endilikda bu yerni uzumchilikka ixtisoslashtirilgan manzil, deyish mumkin.

Yana bir gap. Prezidentimizning tumanimizdagi mahallalarning har birida istagi borlarga namunaviy intensiv bog' qilib beriladi, degan gaplari biz, bog'bonlarni juda xushnud qildi. Aholi tomonidan terakzorlar barpo etish uchun belgilab berilgan vazifa ham qo'shimcha daromad topish uchun ko'pchilikka imkoniyat yaratadi.


Ro'zg'orimiz ko'makchisi

Hayitali AHMEDOV,
Ittifoq mahallasida istiqomat qiluvchi mehnat faxriysi:

— Turmushimizning chiroyli, to'kin bo'lishi, avvalo, yerdan qay darajada unumli foydalanishimizga bog'liq. Shukur, qishloqlarimizdagi xonadon borki, ana shunday bebaho boylik — tomorqasiga ega. Xususan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, tumanimizning eng katta zaxirasi ham, imkoniyati ham — yer hisoblanadi. Ya'ni videoselektor yig'ilishida ishtirok etib bildimki, Sayxunobod mamlakatimizdagi aholi tomorqasi 20 sotikdan ortiq bo'lgan 26 ta tumandan biri ekan.

Bizning hovlimiz ham keng-mo'l — 18 sotix. Har yili tomorqamizda biror qarich ham yer bo'sh qoldirilmaydi. Sabzavot ekinlaridan bir yilda ikki marta hosil olamiz. Mevali daraxtlarni tomorqamiz chekidda o'stiramiz. Natijada yerimizdan ancha-muncha daromad topish bilan birga, ro'zg'orimizga kerakli meva-cheva, sabzavot ham olamiz. Sodda qilib aytganda, tomorqamiz ro'zg'orimizning eng ishonchli ko'makchisi, tayanchi.

Yig'ilishda biz, tomorqa egalarni xursand qiladigan yangiliklar, xushxabarlar ko'p bo'ldi. Ulardan biri — tumanimizdagi har bir mahallaga minitraktor berilgani. Bu aholiga katta qulaylik. Ayniqsa, ehtiyojmand oilalarning yerlarini tekin haydab



berish tartibi ham joriy etilayotgani juda ma'qul ish bo'ldi. Qolaversa, hududimizda to'rtta yirik parrandachilik fermasi ishga tushirilishi yuzlab xonadonlarga fayzu baraka olib kiradi.

Aytilishicha, mazkur korxonalar 500 2 mingta xonadonga 502 tadan 2 mingtagacha jo'ja tarqatib, ularda sanoat usulida yiliga o'rta 6-marta mahsulot olishni tashkil qiladi. Ozuqani ham korxonaning o'zi yetkazadi, boqishni ham o'rgatadi, parvarishiga ham ko'maklashadi. Natijada xonadonlarda yiliga 10 million parranda boqilib, shuning o'zidan tumanda yiliga qo'shimcha 22 ming tonna parranda go'shti yetishtiriladi.

Bu juda katta marra! Ya'ni ikki mingta oila, boshqacha aytganda, bir necha ming kishining farovon yashashiga xizmat qiladigan istiqbolli loyihadir.

Ahmadali
SHERNAZAROV
("Xalq so'zi") yozib oldi.



**MUASS
O‘zbekiston Respub
Qonunchilik pal
O‘zbekiston Respub
Senati K**